


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-mart)


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha joriy yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 125,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,5 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 164,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 199,8 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 960,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 100,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 53,2 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 95,6 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri, Beruniy, Taxiato'sh va To'rtko'l tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'rish sur'atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan ulushi - 30,7 %), Beruniy (10,1 %), Xo'jayli (9,2 %), To'rtko'l (8,8 %) va Qo'ng'iro't (6,7 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,8 %ga o'sdi va 164,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 14,6 %iga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 960,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 0,6 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 85,4 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


2018 yil
yanvar-mart

2019 yil
yanvar-mart



Yirik korxonalar
Kichik tadbirkorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



Kichik tadbirkorlik
Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qonliko`l (99,7 %), Qorao`zak (99,6 %), Nukus (99,3 %), Kegeyli (99,2 %) va Taxtako`pir (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 14,6 %ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (37,2 %), Taxiatosh (20,9 %) va To`rtko`l (11,5 %) tumanlarida kuzatilgan.

Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qoraqalpog`iston Respublikasi	164 348,4	199,8	960 746,4	100,6
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	4 242,0	92,8	72 088,8	106,0
Beruniy	2 774,4	141,1	110 886,1	105,1
Qonliko`l	95,0	2,7 k	29 338,1	104,6
Qorao`zak	163,4	68,4	38 096,7	105,1
Kegeyli	190,3	145,5	23 821,7	104,5
Qo`ng`irot	3 472,1	2,8 k	72 212,0	101,8
Mo`ynoq	176,7	114,3	7 755,6	103,2
Nukus	162,3	95,1	21 850,7	103,8
Taxiatosh	5 631,6	93,6	21 348,4	109,3
Taxtako`pir	236,6	98,7	29 474,3	104,5

To`rtko`l	11 329,3	107,6	87 535,8	105,2
Xo`jayli	2 508,2	4,1 k	101 311,5	103,5
Chimboy	3 291,3	2,2 k	40 155,9	100,8
Shumanay	245,0	2,3 k	23 907,7	104,4
Ellikqal`a	1 360,8	4,8 k	63 828,7	102,1
Nukus sh.	128 469,4	2,4 k	217 134,7	90,3

2019 yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo`yicha aholi jon boshiga 600,8 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,9 % ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-mart oylarida o`tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o`sish qayd etilib, eng yuqori ko`rsatkichlar Nukus shahri (1 095,1 ming so`m), Xo`jayli (855,9 ming so`m) va Taxtako`pir (744,6 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Mo`ynoq (253,4 ming so`m), Kegeyli (268,3 ming so`m) va Taxiatosh (370,1 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich respublika tumanlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
Qoraqalpog`iston Respublikasi	600,8	106,9
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	390,2	103,2
Beruniy	604,6	103,6
Qonliko`l	584,0	103,6
Qorao`zak	730,2	104,0
Kegeyli	268,3	104,0
Qo`ng`irot	589,0	103,6
Mo`ynoq	253,4	102,1
Nukus	447,4	101,9
Taxiatosh	370,1	104,3
Taxtako`pir	744,6	103,9
To`rtko`l	469,2	103,5
Xo`jayli	855,9	104,1
Chimboy	376,8	103,9
Shumanay	434,4	104,2
Ellikqal`a	416,8	101,6
Nukus shahri	1 095,1	115,7

Jumladan, 2019 yilning yanvar-mart oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,5 % ni tashkil etib, 39,1 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-mart)

Yil boshidan respublika bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 289,2 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 8,2 %ga o`tdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko`ra 167,2 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 96,8 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 57,8 % ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko`rsatkichni tumanlar bo`yicha tahlil qilganda, Beruniy, Qo`ng`irot, Qorao`zak, Qonliko`l, Mo`ynoq, Taxtako`pir, Ellikqal`a va Nukus tumanlarida 100 % ni tashkil etgan.

**Yirik va kichik korxonalarning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 42,2 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Xo`jayli (jamiga nisbatan ulushi - 54,3 %) Nukus shahri (35,3 %), va To`rtko'l (13,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qoraqalpog`iston Respublikasi	289 227,7	108,2	122 024,9	128,9	167 202,8	96,8
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	1 983,5	99,8	132,3	173,5	1 851,2	96,8
Beruniy	12 742,7	95,7			12 742,7	97,0
Qonliko`l	2 677,1	96,9			2 677,1	96,9
Qorao`zak	479,9	96,8			479,9	96,8
Kegeyli	120,0	92,0	0,3	4,7	119,7	96,4
Qo`ng`irot	4 758,1	96,5			4 758,1	96,8
Mo`ynoq	165,6	96,4			165,6	96,4
Nukus	15 020,4	96,5			15 020,4	96,5
Taxiatosh	5 529,8	96,2	252,9	80,6	5 276,9	97,1
Taxtako`pir	2 167,5	96,5	0,1	0,8	2 167,4	97,2
To`rtko`l	8 155,9	93,1	1 116,3	75,4	7 039,6	96,7
Xo`jayli	68 950,6	149,1	66 304,9	152,4	2 645,7	96,7
Chimboy	3 891,4	102,7	343,8	2,5 k	3 547,6	97,2
Shumanay	36,1	81,7	2,3	25,3	33,8	96,4
Ellikqal`a	10 067,9	96,6			10 067,9	96,6
Nukus sh.	152 481,0	101,1	53 871,9	110,2	98 609,1	96,8

Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Shumanay (81,7 %) tumanida qayd etildi.